

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH HAMDA TALABALARDA ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Rasulov Sherzod Sharof o'g'li

JizPI., Iqtisodiyot va menejment kafedrasasi assistenti

Kirish. Dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'limni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki hozirgi globallashtirilgan dunyoda keng qamrovli tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislar zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rganish asosiy o'ringa ko'tarilishi zamon talabidir. Yoshlarni ta'lim olishga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish uchun o'quv amaliyoti fanlarni o'qitish, mustaqil va ijodiy ishlashlarini samarali tashkil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Professional ta'limning barcha bosqichlarida bo'lajak mutaxassis uchun mustaqil fikr yuritish asosiy talab bo'lib qolishi kerak. Fikrlash yoki fikr yuritish o'quvchi aqliy faoliyatining, aql zakovatining, muomala maromining, ongli xulq-atvorining yuksak shakli bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim jarayonini modellashtirishda kasbiy mobillik (academic mobility) va vaqt taqsimoti (time management) va o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash va amaliyotga joriy etish dolzarbligicha qolmoqda.

Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra, bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ta'lim olish va o'z ustida ishlash egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda mustaqil qo'llay olish, o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish, o'z sohasi bo'yicha dunyo miqyosidagi yangiliklardan doimo xabardor bo'lish va ulardan o'z faoliyati davomida foydalana olish, innovatsion faoliyat olib borish ko'nikmalari o'quv amaliyotlarida shakllanadi. Shu bois, o'quv amaliyotlarida mustaqil ta'lim soatlari hajmini oshirish, o'quvchilarda tizimli tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan yangi metodika va texnologiyalarni ishlab chiqish va keng joriy etish, o'quv jarayonining asosiy qismini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallar bilan muntazam boyitib borish orqali kasbiy va shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan mustaqil ta'limni rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rishni takomillashtirish borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil ta'lim - olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

O'quvchilarning mustaqil ishi (keyingi o'rinlarda O'MI) – bu o'quvchining o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. O'MI mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

Mustaqil ta'limning rivojlanishi, o'quv adabiyotlariga bo'lgan ehtiyojning oshishi, Internet tarmoqlari orqali masofaviy ta'lim olish jarayonlarining takomillashishi zamonaviy o'quv adabiyotlariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. O'quvchilarning mustaqil o'z-o'zini rivojlantirishi avvalo zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini egallashi bilan baholanadi. Bunda o'quvchilar ta'lim resurslaridan foydalanishda Internetdan, elektron kutubxonadan foydalangan holda ilmiy ta'limiy axborot resurslaridan foydalanishni, axborot qidiruv tizimini to'g'ri tashkillashtirishni, kitobxonlik madaniyati shakllangan bo'lishi lozim.

Ta'lim resurslari bilan mustaqil ishlashning kirish va tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar nimani va nima uchun qilishlari kerakligi, boshqacha aytganda, ushbu o'quv faoliyatining maqsadlari va ularga qanday erishish kerakligini tushunishlari kerak.

O'quvchilarda mustaqil ishlash faoliyatida ularning mustaqillik darajalari 3 xil ko'rsatkich asosida belgilanadi:

1. Reproduktiv shakldagi o'z-o'zini anglash (o'tilgan materiallarni takrorlash, topshiriqlarni bajarish va boshqalar) ijodiy bilim olish va o'zlashtirish jarayonining birinchi darajasidir.

2. Ijodiy mustaqillikning ikkinchi darajasi - ilgari o'rganilgan va yangi materialni birlashtirish hisoblanadi. Ikkinchi bosqich mustaqillikning yuqori darajasiga xos bo'lib, tanlangan material olingan axborotni qayta ishlash va tahlil qilishning yangi usullari bilan bog'lanadi va qayta tiklanadi.

3. Keyingi, yuqori darajadagi ijodiy mustaqillik darajasi, o'quvchining o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va ma'lumotni izlash, tanlash va o'rganishning qulay usullaridan foydalangan holda yangi ko'nikmalarni egallashi bilan belgilanadi. Mustaqil ta'limning eng yuqori darajasi muammolarni mustaqil ravishda shakllantirish va ularni mustaqil hal qilishga intilish bilan belgilanadi.

Oxirgi darajaga erishish uchun birinchi ikkita daraja o'zlashtirilgan bo'lishi kerak. Mustaqil ishlashning barqaror ko'nikmalariga ega bo'lish jarayoniga ijodiy fikrlash ham kiradi. Ijodiy fikrlashning namoyon bo'lishi uchun iste'dod talab qilinadi, bilim olish, qiziqtirgan muammoni o'rganish jarayoni ijodkorlik va fikrlash bilan bog'liq bo'lib, ijodiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi (1-rasm).

1-rasm. Ijodiy mustaqillikning daraja ko'rsatkichlari



Biz talaba shahsini shakillashtirishda ularning eng avvalo ijodiy izlanishga o'rgatish tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug'ullanishga zamin yaratish, nutqini rivojlantirish, ijod qilish salohiyatini yahshilanishiga erishishimiz joizdir.

Buning uchun oliy talimda oquv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini quyidagi mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lar edi:

- Mustaqil ish mavzulari o'quv predmeti tayanch mavzularining bittasini yoki bir nechtasida yoritilgan malumotlar asosida yechimi bor muammolarga tayangan holda tuzilishi.

- Konkret bir yoki kichik-kichik bir nechta muammolar ko'tarilishi, yechim yo'li profilaktikasi yoritilishi.

- Albatta tajriba, laboratoriya sinov yoki boshqa amaliyotga asoslanishi.

- Hulosa qismida o'zi uchun o'zlashtirgan bilimni qisqa lo'nda bayon etilishi.

- Kichik ixtiro yoki kashfiyotlar (o'xshamagan bo'lsa ham) kiritilishi kabi qator qiziqarli faoliyatlar, misollar, masalalar va boshqalar.

Talabalarga o'quv jarayonining amaliy, laborator va seminar mashg'ulotlarida turli kazuslar echimi, o'quv-texnologik vazifalarni yuklanishi, muammoli materiallarni echimini topish orqali uslubiy yangiliklar kiritilgan kichik mustaqil ishlarni belgilash bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Ta'lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birgalikda, mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuvini talabalarga erkin yoritish imkonini berish samaraliroq hisoblanadi.

Mustaqil ishlar konkret belgilangan standartlardan xoli bo'lishi, ularning mazmunan va usluban qolipga solinishi mustaqil ishlarni plagiat asosida amalga oshishiga olib keladi.

Talaba mustaqil ish bajarishi uchun eng avvalo tanlov asosida mavzuni o'zi tanlashi, albatta o'qituvchi tomonidan ishning borishi zasidan tavsiya va maslahatlar olishi lozim.

Mustaqil ish hajmi mavzuning oddiy va murakkabligidan kelib chiqishi, unga turli ilovalarni majburiy tarzda kiritilmasligi, yoritilish erkinligi, (talaba hohlasa ilmiy rasm sifatida chizib bersin) muaiyan laboratoriya, tajriba natijasiga tayanilishi lozim.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarni iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Mustaqil talimning sirtqi bo'lim talabasi tomonidan amalga oshiriladigan qismi esa mutlaqo boshqa, yani mazkur faoliyat talabani bilim olishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Sirtqi bo'lim talabasi fanning asosiy qismini aynan mustaqil tarzda o'rganishi lozim. Talabalarning mazkur faoliyatini onlayn tarzda doimiy nazoratini tashkil etish kelajakda masofaviy ta'limning rivojlanishiga ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 3(1), 28–31.
2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 38-42.
3. Sharifa, R., & Ilyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1097-1100.
4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1093-1096.
5. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1088-1092.
6. Sharifa, R., & Nozima, T. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN COMPETITIVE CONDITIONS IS THE MAIN FACTOR OF ENTERPRISE SUCCESS. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(20), 200-203.
7. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 77-83.
8. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 73-76.
9. Gaybullayevna, R. S. (2023). MODERN FUNDAMENTALS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITY. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 51-54.
10. Gaybullaevna, R. S. (2023). Methods for Assessing the Economic Efficiency of Investments in Construction. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(1), 95-98.
11. Gaybullaevna, R. S. (2023). Construction Industry in Uzbekistan Is an Important Priority Network of the National Economy. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 69-71.
12. Qamarov Asadbek Zafar o'g'li, & Rasulova Sharifa G'aybullayevna. (2023). BIZNESINGIZ UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINI QANDAY YARATISH MUMKIN. *Scientific Impulse*, 2(14), 305–312.
13. Gaybullaevna, R. S. (2023). Economic Efficiency of Investing in Construction. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(3), 94-97.
14. Расулова, Ш. Ф. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА БАНДЛИК МУАММОСИ. ИШСИЗЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, 3(7), 22-25.
15. Расулова, Ш. Г. (2020). ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ. *Экономика и социум*, (2 (69)), 316-319.
16. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.
17. Расулова, Ш. Г. (2019). ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 95-100.
18. Rasulova, S., & Jabborova, Z. (2019). PRINCIPAL DIRECTIONS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 18.
19. Расулова, Ш. Ф. (2019). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ

ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 90-95.

20. Якубов, С. Ф., Гафуров, А. Т., & Расулова, Ш. Г. (2015). Вопросы активизации деятельности коммерческих банков в финансировании инвестиций. *Молодой ученый*, (3), 551-556.

21. Расулова, Ш. Г. (2019). ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 95-100.

22. Uglu, R. S. S. (2021). Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 390-396.

23. Расулова, Ш. Г. (2019). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 90-95.

24. Расулов, Ш. (2022). Ўзбекистон Республикасида меҳнат ресурсларининг иш билан бандлигининг жорий ҳолати таҳлили. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(2), 227-232.

25. Расулов, Ш. (2022). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 149-153.

26. Расулов, Ш. Ш. (2024). МАМЛАКАТИМИЗ МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИ БЎЙИЧА БАНДЛИГИНИНГ ЖОРИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. *Innovations in Science and Technologies*, 1(1), 78-89.

27. Расулов, Ш. Ш. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИ ИШ ЎРИНЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 1318-1321.

28. Sh, R. S. (2023). MEHNAT RESURSLARINING IQTISODIYOT TARMOQLARI BO 'YICHA BANDLIGINING JORIY HOLATI TAHLILI. QO 'QON UNIVERSITETI XAVARNOMASI, 9, 113-116.

29. Sharof, R. S. (2023). Analysis of The State Employment Policy Aimed at The Employment of Labor Resources in The Republic of Uzbekistan. *International Journal of Human Capital and Innovative Management*, 1(1), 54-61.

30. Расулов, Ш. Ш. Ў. (2024). ТАДБИРКОРЛИК КОРХОНАЛАРИДА ЭКСПОРТ КЎЛАМИНИ ОШИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (6), 255-261.

31. Keldiyorovich, O. I., & Sharof o'g'li, R. S. (2023). PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOTLARNI TUZISHGA QO 'YILGAN TALABLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 276-283.